



FIZIKA FANINI O'RGANISH METODLARI

Begmuradov Shohzod Dilmurod o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda sinflar darajasida o'quvchilarni fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda fizika fanini o'rganish metodlari.*

Kalit so'zlar: "Fizika", fizika fanini o'qitishda interfaol metodlar, I.Ya.Lemer.

METHODS OF TEACHING PHYSICS

Annotation: *In this article, the methods of learning physics based on the thinking of students at the class level in teaching physics in secondary schools.*

Keywords: "Physics", interactive methods in teaching physics, I. Ya. Lemer

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

Аннотация: *В данной статье рассмотрены методы обучения физике на основе мышления учащихся на уровне класса при обучении физике в общеобразовательной школе.*

Ключевые слова: «Физика», интерактивные методы обучения физике, И. Я. Лемер.

Fizika grekcha "tabiiy", "tabiat" so'zlaridan olingan bo'lib, tabiiy borliq haqidagi fan hisoblanadi. Fizika fanini maktabda o'qitish o'quvchilarning borliq haqidagi, atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni rivojlantirish, xalqaro texnologiyalarni xalq ta'limiga olib kirish takomillashmoqda. Ushbu maqola fizika fanini o'qitishda ilmiy tadqiqot metodlari va STEAM texnologiyasining ahamiyatiga bag'ishlangan.

"Fizika" fani 6-9-sinflarda haftasiga ikki soatdan o'qitiladi. 6-sinfda o'quvchilarga fizik hodisalar va kattaliklar haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Bu bilan o'quvchilarni fizikaga qiziqtiriladi, fizika fani haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi, tevarak-atrofdagi fizik hodisalarning mohiyatini elementar tarzda tushuntirish orqali ilmiy dunyoqarashlari shakllantiriladi.

6-sinfda o'quvchilar 4-sinfda o'qitilgan tabiatshunoslik fani va 5-sinfda o'tilgan botanika va geografiya fanlarida o'rganilgan: suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq

kabilarni; - yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;

- o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.



Fizik talabalami metodik jihatdan tayyorlash muammosi bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlarning tahlili va ularni o'tkazish metodikasi hamda tarkibi ko'p, turlicha ekanligini ko'rsatish lozim. Bulami qoidaga ko'ra, metodik masalalar va seminar mashg'ulotlari materiallarining mazmuni bilan moslashtirish zarur. Talabalami umumta'lim maktab, AL va KHK lar o'quv dasturidagi ayrim masalalarni o'qitishning samarali yo'lini topishga o'rgatish kerak. Fizika fanini o'qitishning ko'p qiriali o'qitish va tarbiyalash masalalarini hal qilishda seminar- mashg'ulotlarining imkoniyati beqiyosdir. Metodik o'yini talabalarning bilimlarini amalda qo'llashga, qo'yilgan masalani to'g'ri hal qilinishini ta'minlashga. ko'riladigan choralarning taktikasi va strategiyasini ishlab chiqishga o'rgatadi. Ularga bag'ishlangan seminar mashg'ulotining tarkibiy tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Fizika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Ta'limda interfaol metodlarni qo'llashning asosiy maqsadi o'quvchilarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularga bilish hamda izlanish malakalarini, maydon, radiatsiya, radiaktivlik, raketa, biofizika va ko'nikmalarini rivojlantirish, umumta'lim maktablari fizika fani bo'yicha o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishda faoliyatni oshirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorida 5 ta asosiy ustuvor yo'nalish bo'lib, uning 2, 3, va 4 bandlarining ijrosi umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari va barcha fan o'qituvchilari qatori fizika fani o'qituvchilari zimmasiga ham ulkan vazifalar yukladi. Bu albatta, fizika fani o'qituvchilaridan o'z kasblariga ijodiy yondoshishni va o'quvchilarni o'qish bilan birga uqishga, kuzatuvchanlikka o'rgatishni talab qiladi. Bunga erishishning ko'plab usul va uslublari bo'lib o'qituvchi ushbu usullardan qay birini qo'llashdan qat'iy nazar o'quvchilarga topshirilgan vazifalarni mustaqil va aniq bajarish metodikasiga amal qilishdir.

Fizika darslarida o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara berishini biz o'z tajribamizda juda ko'p bora kuzatganmiz. Chunki fizika fanining har bir mavzusi hoh u nazariy bo'lsin, hoh u amaliy bo'lsin, muammoli savollarga duch kelasiz. Yu.K. Babanskiyning qator asarlarida ta'limni optimallashtirish muammolari o'rganildi.

V.I. Zagvyazinskiy o'z izlanishlarida ta'limning harakatlantiruvchi kuchlari muammosini keng o'rgangan bo'lsa, V.V. Kraevskiy ta'limni didaktik asoslash muammosini nazariy tahlil qilish bilan shug'ullandi. I. Ya. Lemer o'z tadqiqotlarini ta'limning genetik hujayrasini ajratish, ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tahlil qilishga qaratdi. I. I. Maxmutovning asarlarida muammoli ta'lim masalalari nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. S. Bozorova, X. A. Valiyev, D. Sh. Shodiyev, G. N. Yunusova kabi olimlar tadqiqotlarida umumiy ta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida fizika ta'limi mazmuni, metodlari, vositalari, taslikiliy shakllarini takomillashtirish muammolari keng tahlil qilingan. Pedagogik texnologiya g'oyalarini respublikamiz sharoitida ishlab chiqishda I. Ismoilov, M. Mamadazimov, B. M. Mirzahmedov, E. N. Nazirov, Yu. Po. Matov, D. Shodiyev, Yu. Mahmudov, E. Turdiqulov, K. Tursunmetov kabi usuliyatshunos, fizik olimlarning katta xizmatlari mavjud.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ya.I.Perelman “Qiziqarli fizika” Toshkent-2009-y 6-bet.
2. K.Tursunmetov “Ma’lumotnoma” Toshkent-2007 y 13-15 betlar .
3. O'.B. Molekulyar fizika. - Samarqand: SamDU, 2004.
4. Kikoin A.K., Kikoin I.K. Molekulyar fizika. — T.: O'qituvchi, 1978.
5. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. — М.: Педагогика. 1990.
6. Коротяев Б.И. Педагогика как совокупность педагогических теорий — М.: Просвещение, 1986.
7. Леднев В.С. Содержание образования. М.: Высшая школа, 1989
8. Леонтович М.А. Введение в термодинамику. Статистическая физика—М.: Паука, 1983.